

**SHAXS KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK
MEXANZIMLARNING O'RNINI****Tursunov Sherzod Ilhomovich***Talim muassasalari boshqaruvi yo'nalishi 2 kurs magistranti*

Annotatsiya: *Hozirgi vaqtda kasbiy kompetentlikni shakllantirishda o'qitish texnologiyasiga katta e'tibor berilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilar tarkibi tomonidan ishlab chiqilayotgan va foydalanilayotgan o'qitish texnologiyalari bo'lajak mutaxassis kasbiy kompetentligining qaror topishi va tarbiyalash ta'lim tizimining tarkibiy qismi bo'lib, kasbni egallashning kasbiy-ahamiyatli bazasini dastlabki yaratishga, kasbiy faoliyatni yuqori darajada amalga oshirish uchun nazariy, amaliy va motivatsiyali tayyorgarlikning va qodirlikning sekin-asta shakllanishiga yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *Shaxs, kompetensiya, kompetentlik, maxsus, ijtimoiy, shaxsiy, individual kompetentlik.*

KIRISH

Psixologik - pedagogik adabiyotlarda, ko'pgina pedagog olimlarning ilmiy ishlarida «kompetentlik» degan tushuncha keyingi paytlarda keng qo'llanilmoqda. Ta'lim tizimiga kompetentli yondashuv xorijiy adabiyotlarda o'tgan asrning 60 yillarida shakllana boshlagan edi.

«Kompetentlik» - tushunchasi esa, shaxsning doimo o'sib boruvchi tasnifi bo'lib, real hayotiy vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarni echish qobiliyati, o'z bilimi, o'quv va hayotiy tajribalari, qadriyatlar va qiziqishlarini unga safarbar etish imkoniyatlari hisoblanadi.

Kompetensiya- ma'lum bir fan sohasida samarali faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim va tajribaning mavjudligi. **Kompetensiya** (lot.competens – mos, mos, mos, qobiliyatli, bilimdon) – har qanday sohada har tomonlama bilimga ega bo'lgan va shuning uchun fikri salmoqli, obro'li bo'lgan shaxs sifati; **Kompetensiya** - real, hayotiy harakatni amalga oshirish qobiliyati va shaxsning faoliyatga qo'shilishi paytida olingan malakaviy xususiyat; har qanday harakat ikki jihatga ega bo'lganligi sababli - resurs va samarali, bu resursning mahsulotga aylanishini belgilaydigan kompetensiyalarni rivojlantirishdir; **Kompetensiya** - mavzuni bilish bilan bog'liq muammolarni hal qilishga potentsial tayyorlik; mazmun (bilim) va protsessual (mahorat) komponentlarini o'z ichiga oladi va muammoning mohiyatini bilish va uni hal qilish qobiliyatini nazarda tutadi; bilimlarni doimiy ravishda yangilab turish, ushbu bilimlarni muayyan sharoitlarda muvaffaqiyatli qo'llash uchun yangi ma'lumotlarga ega bo'lish, ya'ni. operativ va mobil bilimlarga ega bo'lish; **Kompetensiya** - ma'lum bir kompetensiyaga ega bo'lish, ya'ni. o'z faoliyati haqidagi bilim va tajriba, ularga hukm chiqarish va qaror qabul qilish imkonini beradi. Sotsiologiyada kompetensiya - bu ijtimoiy omillarning nazarda tutilgan bilimlarni o'zlashtirib, ijtimoiy o'zaro ta'sirning to'liq va malakali ishtirokchisiga aylanish qobiliyatidir.

Kompetensiya o'z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o'z amaliy faoliyatida qo'llashni talab qiladi. **Kompetensiya** egasi bo'lgan

mutaxassis muammolarni echishda o'zi o'zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo'lgan metodlarni tanlab olib qo'llashi, to'g'ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko'z bilan qarashi kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Ta'lim jarayonini takomillashtirishning muhim omili ta'lim tizimida o'qituvchilar kasbiy kompetentligini yuqori darajada shakllantirilishi bilan uzviy bog'liq. SHu sababli, zamonaviy ta'lim texnologiyalari imkoniyatlaridan hamda yaratilayotgan o'quv uslubiy majmualardan umumli foydalanish negizida o'qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonining nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish dolzarb vazifalardan biri ekanligini belgilaydi.

SHu munosabat bilan o'qituvchilarni oliy ta'lim muassasasida tayyorlash davridan talab qilinadigan kasbiy kompetentlik darajasini ta'minlaydigan yangicha yondashuvlarni ilmiy asoslash dolzarb vazifa bo'lib kelmoqda.

Mutaxassislarni kasbiy jihatdan tayyorlash borasida xorijiy mamlakatlarda amalda bo'lgan ta'lim mazmunini bevosita o'rganishi shuni ko'rsatdiki, G'arb mamlakatlarida asosiy o'rinni mutaxassisning kompetentlik malaka darajasi egallaydi. Respublikamizning milliy ta'lim tizimi mohiyatiga ko'ra ta'lim mazmunining minimal talablari bilim, ko'nikma va malakaga asoslanadi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis faoliyatini va uning ichki tuzilishi muhim xarakteristikalarini aks ettirishga tayanadi deb tushunishga asoslangan holda, kasbiy kompetentlik strukturasi uning asosiy komponentlarini tavsiflash nuqtai nazaridan oydinlashtirish mumkin.

Maxsus yoki faoliyatli kasbiy kompetentlik - bu faoliyatni yuqori kasbiy darajada olib borishi. Maxsus kasbiy kompetentlik nafaqat maxsus bilimlardan, balki bu bilimlarni amalga oshirishdan iborat;

Ijtimoiy kompetentlik - bu qo'shimcha faoliyatni olib borish yo'llarini bilish, hamkorlikda bajarish yo'llarini bilish;

SHaxsiy kompetentlik - o'zini rivojlantirish va o'zini ko'rsatish yo'llarini bilish (mutaxassis o'zining faoliyatini rejalashtirish, mustaqil qaror qilish, ma'lumotlar bilan va o'z ustida ishlash).

Individual kompetentlik - bu o'zini boshqarish yo'llarini bilish, kasbiy rivojlanishga tayyorgarlik va kasbiy yangiliklar yaratish. SHu bilan birga o'qituvchining bilimlari yangiliklar bilan boyigan bo'lishi, psixologik va pedagogik fazilatlar yuqori darajada bo'lishi.

XULOSA VA MUNOZARA

Ta'lim jarayonini takomillashtirishning muhim omili ta'lim tizimida o'qituvchilar kasbiy kompetentligini yuqori darajada shakllantirilishi bilan uzviy bog'liq. SHu sababli, zamonaviy ta'lim texnologiyalari imkoniyatlaridan hamda yaratilayotgan o'quv uslubiy majmualardan umumli foydalanish negizida o'qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonining nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish dolzarb vazifalardan biri ekanligini belgilaydi.

Respublikamizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Tarbiyachilarning o'ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Mening fikrimcha, ta'lim - tarbiya tizimini o'zgartirishdagi asosiy muammo shu erda. O'qituvchi o'quvchilarimizga zamonaviy bilim

bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak" - deb ta'kidlaydi.

Ushbu fikrlardan xulosa chiqargan holda o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda quyidagi bir qator ko'nikmalarga ega bo'lishi lozimligi belgilab olindi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. DILRABO ELMURATOVA, NODIRA MISIROVA "PEDAGOGIK KOMPETENTLIK VA KREATIVLIK ASOSLARI" o'quv qo'llanma.
2. G.O.Ochilova "KASBIY KOMPETENTLIK" o'quv qo'llanma.
3. 2. Arzikulov D.N. Psychological features of professional development. Psychol.
4. fan.nom. diss ... avtolyoihai. - Tashkent: 2002. -22 p.
5. 3. Ahlidinov R. Sotsialno-Pedagogicheskie osnovy upravleniya kachestvom
6. obshchego srednego obrazovaniya. Avtoref.dis ... d-ra ped.nauk. -T.: 2002. -44 p.
7. 4. H.Sharipov, N.Muslimov, M.Ismailova: "Pedagogy of vocational education".
8. Methodical manual. - T. 2005 y.
9. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 November 2021 / Volume 2 Issue 11 www.openscience.uz 990
10. 5. M.Usmonbaeva, G.Anorkulova, G.Shamaripkhodjaeva Educationalmethodical complex "Fundamentals of pedagogical competence and creativity". T.
11. 2015. Pages 14-15
12. 6. NA Muslimov Professional development of the future teacher of vocational
13. education T., Science 2004.
14. 7. Ishmuhamedov R, Abdukodirov A, Pardaev A. Innovative technologies in
15. education. - T.: "Iste'dod", 2008. - 180 p.
16. 8. Muslimov N. and others. Technology for the formation of professional
17. competence of vocational education teachers. - T.: «Science and technology», 2013.
18. - 128 p.
19. 9. Nizomkhanov SA, Madaminov I. Ways to increase information and
20. communication competence in the professional activity of the teacher. // Journal of
21. Modern Education, 2014, №10.
22. 10. Ismailov Tohirjon Khushnudbek oglu; International Journal of Academic
23. and Applied Research (IJAAR) Vol. 5 Issue 4, April - 2021, Pages: 181-182
24. www.ijeais.org/ijaar 181 "Formation Of Student Aesthetic Competition By Teaching
25. The Works Of Russian Classic Composers In Music Culture Classes"